



BOSHLANG'ICH SINFLARDA PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI

Qo'qon davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Shahzoda A'zamova
404-guruh talabasi **Xamidova Zulayho**

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim sifatini oshirish uchun yuksak malakali kadrlarni tayyorlash boshlang'ich sinflardan boshlanishi; zamonaviy texnologiyalar asrida o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishda o'quvchilarni qiziqishlarini hisobga olgan holda har biri bilan shug'illanish; o'quvchilarda fanga, kasbga bo'lgan qiziqishni oshirish; I.A.Gersen aytganidek "Qiyin fan yo'q, balki qiyin tushuntirish bor xolos" jumllariga amal qilgan holda biz pedagoglar kamchiliklarni farzandlarimizdan izlamay, eng avvalo o'zimizni isloh qilishimiz, ularga o'rgatayotgan ma'lumotlarimizni hayot bilan chambarchas bog'liq ekanligini anglata olishimiz va hu o'rinda aytish zarurki, boshlang'ich sinflarda fanlarni past yoxud sekin o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq shug'illanib, ularni kelajaklari uchun zamin yaratishimiz to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagoglar vazifasi, o'quvchilar, sinf jamoasi, ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligi, to'g'ri yo'nalganlik, pedagogik mahorat, texnologiyalar, interfaol metodlar, malakali kadrlar, zamon talablari va b.sh...

XXI asr -" Zamonaviy texnologiyalar asrida "- iloji yo'q, buning imkoni mavjud emas, qila olmaymiz, bo'lmaydi kabi jumllar tobora hayotimizdan chiqib ketmoqda. Hozirgi kunda inson o'zi istab, harakat qilsa barcha narsaning yechimini topmoqda. Demak, biz pedagoglar ham shunday jamiyatda, muhitda yashayotganimizni inobatga olgan holda o'quvchilar bilan shug'illanish jarayonlarida past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ro'baro' bo'lganimizda bu o'quvchi hech narsani bilmaydi, bunga o'rgatib bo'lmaydi deb emas, balki o'quvchining qiziqishlarini aniqlab, iste'dod va iqtidorini o'ziga va o'rtoqlariga namoyish qilish orqali o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, kelajak hayoti uchun poydevor qurishida to'g'ri yo'nalish bera olish qobiliyatini va mahoratini o'zimizda jamlashimiz kerak. Buning uchun dars jarayonlarini tashkil etishda noan'anaviy dars usullaridan, pedagogik texnologiya va ko'rgazmali qurollardan, interfaol metodlardan to'g'ri foydalana olishimiz zarur. Bir so'z bilan aytganda, hozirgi zamon pedagoglaridan "Aktyor" bo'lishi emas, aksincha "Rejissiyor" bo'lishlik talab qilinmoqda. Shundagina mustaqil va erkin fikrlay oladigan yuksak malakali kadrlarni jamiyatimizga taqdim eta olamiz, ta'lim sifatini oshirib yuksak malakali kadrlar bilan O'zbekiston nomini yana bir marta ko'klarga ko'tarishga muvaffaq bo'lamiz. Ushbu jarayonlarni amalga oshirishdagi bosh bo'g'in boshlang'ich sinf o'qituvchilaridir. Shunday ekan biz pedagoglar o'zimiz yok iota- onamiz uchungina

o‘qimay , balki dvalat va jamiyatni o‘zgatira oladigan insonlar ekanligimizni anglagan holda mas‘uliyatni to‘g‘ri qabul qilishimiz darkor.

Maktabdagi ta‘lim va tarbiya jarayonida asosan pedagogning mahorati hamda ularni qo‘llay olish darajasi namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinlarda pedagoglarning roli beqiyos. Shu sababli ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘p o‘qib-o‘rganganlikdan tashqari ularni to‘ri va turli usullarda yetkazib bera olish qobiliyatini o‘zida jamlashi kerak. Ular bolalar bilan ishlaganda turli tipda o‘quvchilarga duch keladilar:

1. O‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar
2. O‘zlashtirish darajasi normal bo‘lgan o‘quvchilar
3. O‘zlashtirish darajasi past (sekin) bo‘lgan o‘quvchilar

Birinchi va ikkinchi tipdagi o‘quvchilarga an‘anaviy dars jarayonlarida ham bemalol tushuntirib, dars jarayonlarini olib borish mumkin. Ammo uchinchi tip vakillari bilan dars jarayonlarini tashkil etishda pedagogdan yuksak mahorat va bilim talab etiladi. Bu turdagi o‘quvchilarga dars jarayonida turli o‘yinlar , ko‘rgazmali qurollar tayyorlash ,noodatiy dars usullaridan foydalanilsa , yaxshi natijalarga erishish mumkin. Boshlang‘ich sinfda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda turli usullardan foydalanish mumkin. Quyida shulardan bir nechtasini ko‘rsatib o‘tamiz:

1.Guruh bilan biriktirish . Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni to‘rt yoki besh nafardan qilib guruhlariga ajratadi. Har bir guruhga bir nafardan past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni jalb qiladi va dars jarayonlarini guruhlar kesimida olib boradi. Bunda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchi guruhdagi o‘quvchilarga yetib olish uchun harakat qiladi .

2. Namunali o‘quvchi bilan biriktirish. Bu usulni tarbiyasida muammo mavjud bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda qo‘llagan maqul. Shunda pedagog o‘quvchi bilan dars jarayonida alohida tabriyaviy soatlar tashkil qilishga majbur bo‘lmaydi. Bu esa sinf jamoasiga ko‘proq ma‘lumotlar berish uchun vaqtlarni yuzaga keltiradi.

3. Alohida shug‘illanish. Jamiyatimizda shunday oilalarning farzandlari mavjudki, ular bilan ishlashda pedagoglar nafaqat ta‘lim, balki tarbiya berishga ham majbur bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar bilan shug‘illanishda pedagoglardan katta mahorat talab qilinadi. Ta‘lim va tarbiyasida muammolari bo‘lgan o‘quvchilar bilan pedagoglar alohida shug‘illanib , kelajakda o‘zini anglagan inson bo‘lishi uchun haftada ikki yoki 3 soat vaqt ajratishi zarur.

4. Ma‘lum bir lavozimga tayinlash . Past o‘zlashtiriyotgan o‘quvchini ma‘lum bir vazifaga tayinlash orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlagan holda darslarni o‘zlashtirishda o‘sishni kuzatish mumkin.

5. Rag‘batlantirish . Bu jarayonda pedagog o‘quvchining fanga qiziqishini oshirib olguncha tez tez rag‘batlantirib turishi lozim. Bunda rag‘bat sifatida shirin so‘z ,maqto‘v, turli rag‘bat belgilaridan foydalanish o‘rinlidir.

6. Pedagog va ota- ona hamkorligini yo‘lga qo‘yish . Maktabda pedagog uyda ota – ona to‘liq nazorat qilishi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchining ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Bunday usullarni o‘quvchi pedagogik va psixologik holatiga qarab ko‘plab keltirish mumkin. Asosiysi bu usullardan dars jarayonlarida to‘g‘ri va unumli foydalana olishdir.

Xulosa qilib aytganda, har bir o‘quvchi bilan shug‘illanib, kelajakda yetuk malakali kasb egalari bo‘lishiga zamin yaratish zarur. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash alohida kuch va sabot talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan ishlashda juda ham e‘tiborli bo‘lish kerak. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov aytganidek “Bizning farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, don ova albatta baxtli bo‘lishlari shart”. Ota- onalar farzandlari bilan shug‘llanishlarini, pedagoglarning o‘z ustida yanada ishlashlarini taklif qilmoqchiman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. “ 1997. – 31-60- betlar
2. Mirziyoyev. Sh. M “ Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak .- T.:O‘zbekiston,2017 , -104 bet
3. Karimov. I.A. “ Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”,-T.: O‘zbekiston , 1997, - 384 bet
4. Asqarova M. “ Pedagogika” ,- T.: G‘afur G‘ulom , 2011, - 286 bet